



EKSPRESSIYA TUSHUNCHASI HAMDA UNING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Jonikulova Guljahon Saitmuratovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola tilda his-tuyg'ular, munosabat va izhorlarni yetkazish uchun qo'llaniladigan turli xil vositalar va usullarni har tomonlama tahlil qilishni maqsad qilgan tilshunoslikdagi ekspressiv vositalarning murakkab sohasi o'rganiladi. Ekspressiv vositalar muloqotning muhim elementlaridan biri bo'lib, so'zlovchi va yozuvchilarga o'z so'zlarini tom ma'noda talqin qilishdan tashqari ma'no qatlamlari bilan yetkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, maqolada ekspressiv vositalar haqidagi turlicha ta'riflar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ekspressiv vositalar, ekpressiya, ekspressivlik, stilistika, tilshunoslik, til ifodasi.

Abstract: This article explores the complex field of expressive means in linguistics, which aims to comprehensively analyze the various means and methods used to convey feelings, attitudes, and expressions in language. Expressive means are one of the important elements of communication, allowing speakers and writers to convey layers of meaning beyond their literal interpretation. In addition, the article explores various definitions of expressive means.

Keywords: expressive means, expression, expressiveness, stylistics, linguistics, language expression.

Ekspressivlik (tilshunoslikda) - til birligining semantik-stilistik belgilari majmui; til birligining aloqa so'zlashuv jarayonida so'zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan sub'ektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo'la olishini ta'minlaydi.



Ekspressivlik tilning barcha sathlari birliklari uchun xosdir. Fonetik ekspressiv vositalar sifatida soʻz tarkibidagi undoshlardan birining qoʻshaloq holda yoki biror unlining choʻziq talaffuz etilishi, urgʻuning oʻrnini oʻzgartirish kabilarni koʻrsatish mumkin. Morfologik vositalar sifatida keng miqyosdagi erkalash-kichraytish qoʻshimchalari (subʼektiv baho ifodalovchi qoʻshimchalar) ni koʻrsatish mumkin (oyi-oyijon, uka-ukaginam va boshqalar). Leksik ekspressiv vositalarga oʻz haqiqiy maʼnosidan tashqari uslubiy (salbiy yoki ijobiy) boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlar, undov soʻzlar va kuchaytiruv yuklamalari kiradi “qiltiriq” soʻzi ozgʻinlikni salbiy jihatdan ifodalaydi, baholaydi).

Sintaktik sathda esa ekspressivlik odatdagi soʻz tartibini oʻzgartirish, elliptik tuzilmalardan foydalanish, soʻz takrorlari orqali taʼminlanadi. Aloqa soʻzlashuv jarayonida lisoniy ekspressiv vositalar bilan parallel ravishda, nutq ekspressivligini kuchaytirishga koʻmak beruvchi koʻplab paralingvistik (nolisoniy) vositalar (tovushning balandligi va tembri, nutq surʼati, mimika, imo-ishora) ham qoʻllanadi. Ekspressivlik bevosita inson histuygʻularini ifodalash bilan bogʻliq boʻlganligi uchun uni emotsionallik (hissiyot, emotsiyani ifodalovchi soʻzlar va ulardan foydalanish)dan ajratib tasavvur etish qiyin. Hatto baʼzi tilshunoslarning asarlarida Ekspressivlik va emotsionallik kategoriyalari bir xil hodisa deb talqin qilinadi. Jahon lingvistikasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri, dunyo tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb masalalarni ijobiy hal etishga munosib ulushini qoʻshib kelayotgan oʻzbek tilshunosligi ham oʻtgan asr davomida rang-barang dunyoqarashlar, taʼlimotlar, nazariyalar taʼsirini boshidan kechirdi, umumlingvistik jarayonlar qamrovida qoldi. Oʻzbek nomli etnosotsial jamoa, yaʼni millatga taalluqli, uning boy tarixini oʻzida aks ettiruvchi, kundalik aloqa-muloqat ehtiyojini toʻla-toʻkis qondiruvchi, uni birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi oʻzbek tilining tabiatini, shakllanish, taraqqiy topish bosqichlari kechagi va bugungi holati, ertangi istiqboli xususida aniq hamda ravshan tasavvurga ega oʻzbek tilshunosligi uchun hozirgi zamon jahon tilshunosligida yuz berayotgan oʻzgarishlar yot emas.



Hech ikkilanmay ta'kidlash lozimki, o'zbek tili tizimida nafaqat turkiy tillarga oid xususiy jihatlar, shuningdek dunyoning besh qit'asida mavjud mustaqil tillarga doir umumiy qonuniyatlar ham qaror topgan. XX asr oxiriga kelib tilni belgilar tizimi tarzida tadqiq etish masalasi tadqiqotchilarni ortiqcha qiziqitirmay qo'ydi. Lingvistika yana psixologiya va sotsiologiya bilan yaqindan munosabatga kirishishga intila boshladi. Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir.

Mazkur sohaning obekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikasi namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiymadaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Tilning voqelanishda inson omili bilan bog'liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo'nalishning o'rganish manbaini tashkil etadi. Ma'lumki, nutqiy muloqot o'nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistemadir. Demak, insonning mental faoliyati bilan bog'liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi madaniyat fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson subekti va obektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi. Zero, nutqda subektivlik va obektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq



qilish mumkin emas, sistemaviylik yaxlitlik xossasi bilan xarakterlanadi. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sistemalar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obektiv baho beriladi.

Lisonning nutqiy voqelanishini unga hamrohlik qiluvchi nutqiy paradigmlar (fiziologik, ruhiy, professional, axloqiy, estetik, madaniy, nutq vaziyati nutq sharoiti, nutq uslubi) qurshovida tekshirish natijasida lisonni modifikatsiya qiluvchi vositalarning ta'siri va rolga baho, nutqning ijtimoiy qiymatiga va ta'sirchanlik – bunyodkorlik ahamiyatiga ilmiy tavsif beriladi. Qisqasi, tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g'oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko'rdi. Bunday tayyorgarlik, izlanishlar zoe ketmadi, o'tgan asrning oxiri tilshunoslik taraqqiyotida o'ziga xos yangi bosqich, yangi rivojlanish davri bo'ldi. Shu davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo'nalishlari yuzaga keldi. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmatlingvistlar e'tirof etishadi. Ularning ko'pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan mualliflar hurmat tamoyili pragmatik tahlilini nazariy jihatdan asoslab berishdan tashqari, ushbu tamoyilni faollashtiruvchi vositalar, ularni qo'llash mexanizmlarini tizimlashtirgan holda tavsiflashga harakat qilib kelmoqdalar. So'zsiz, hurmat tamoyili qoidalarining muloqot jarayonida faollashuvi boshqa qator sotsiopragmatik hodisalar qurshovida kechadi. Turli tamoyil va qoidalarining “uchrashuvi” odatda, muloqot samarasigaijobiy ta'sir o'tkazadi, ammo bunday “uchrashuv”lar ba'zan ziddiyatli kechishi ham mumkin. Binobarin, olijanoblik va kamtarlik qoidalari doimo ham o'zaro hamroh bo'la olmaydi, zero, o'ta olijanoblik maqtanchoqlikka olib keladi. Maqtanchoqlik va kamtarlik bir-birini inkor etuvchi xususiyatlardir. Xulosa qilib aytganda, muloqot vaziyati esa bevosita ma'lum



ijtimoiy guruh, madaniyat uchun xos bo'lgan norma nuqtayi nazaridan baholanadi. Norma ma'lum sotsiumda qabul qilingan ijtimoiy xatti-harakatlar namunalarini belgilab beradi, umumiy qabul qilingan qoidalar asosida lisoniy vositalar tanlovini boshqaradi. Norma hurmat tamoyili amaliyoti uchun tayanch nuqtadir va kommunikativ maqsad ifodasi shaklni belgilab beradi.

Til kishilar o'rtasida eng muhim aloqa vositasi sifatida ijtimoiy mohiyat kasb etadi. U boshqa ijtimoiy hodisalar bilan ham uzviy aloqador. Shu bois ham til xalqning dunyoqarashi, o'tmishi, madaniyati, ruhiyati kabi masalalarni o'rganuvchi falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, etika kabi bir qator fanlar bilan bog'liq. Bu bog'liqlik natijasida tilshunoslikda bir qator oraliq yo'nalishlar – mentalingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, gender lingvistikasi, neyrolingvistika kabi yangi fan sohalari vujudga keldi. Bugungi kunda o'zbek va jahon tilshunosligida bu yo'nalishlar bo'yicha talaygina tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Insonga xos his-tuyg'ular yoqoridagi tilshunoslikning yangi shakillangan yo'nalishlari doirasida tadqiq etilishi mumkin. Dastlab his va tuyg'u tushunchalarini mohiyatini tushunib olish juda dolzab masala. Yer yuzidagi har bir inson ma'lum his-tuyg'ularni (emotsiya) sezish va ularni ifoda etish qobiliyatiga ega. Hattoki, endigina dunyoga kelgan chaqaloq ham ma'lum emotsiyalar (mimika bilan ifodalanuvchi his-tuyg'ular) bilan tug'iladi. His-tuyg'u – ruhiy jarayon bo'lib, insonning atrof-muhitga nisbatan bildirgan javob reaksiyasidir. “Emotsiya” ya'ni, his-tuyg'u so'zi lotincha “emoveo” so'zidan olingan bo'lib, “ta'sirlanaman”, “hayajonlanaman” so'zlarini anglatadi. Emotsiyalar odamni odamga tortuvchi magnit bo'lib, faqatgina insoniyatga xos bo'lgan, o'zaro tushunish va tushuntirish vositasidir. His-tuyg'ularning ba'zilari ijobiy bo'lsa, ba'zilari salbiy xarakterni bildirib, har biri kishiga turlicha ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, his-tuyg'ular insondan insonga ko'chish xususiyatiga ham ega ekan. Hech ahamiyat berganmisiz, aksariyat doimo kulib yuruvchi, tabiatan quvnoq insonni o'rab



turganlar ham xuddi shunday fe'l-atvorga ega bo'lishadi. Quvnoq odam bilan atigi 10 daqiqa gaplashsangiz ham o'zingizda qandaydir yengillik hissi paydo bo'lganini his qilasiz. O'z-o'zingizdan xursand bo'lasiz, kayfiyatingiz ko'tariladi. Shunday ekan, ko'proq quvnoq odamlar suhbatida bo'lishga harakat qiling. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi, til va hissiyot o'rtasida qanday bog'liqlik bor? Shaxs histuyg'ularining lisoniy tasvirlari interpretatsiyasi jarayonida semantikada til va hissiyot o'rtasidagi munosabatlar, rivojlanish, histuyg'ularni idrok etish, histuyg'ularni boshdan kechirish va tartibga solish hamda asab tizimini lingvistik talqin qilish uchun fanlararo sohalardan foydalanadi. So'nggi o'n yilliklarda zamonaviy tilshunoslikda til va hissiyotlar bo'yicha fanlararo tadqiqotlar portlashi ro'y berdi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, til nafaqat boshqalarning yuzidagi histuyg'ularni idrok etishni o'zgartiribgina qolmay, balki inson o'z tanasidagi hissiy tuyg'ularni qanday boshdan kechirishini va tartibga solishini ham boshqaruvchi omil sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Antrushina G. B. Ingliz tilining leksikologiyasi:/G. B. Antrushina, O. V. Afanas'eva, N.N. Morozov. - 3-nashr, -M.: Bustard, 2001.
2. Izard Kerroll E. Hissiyotlar psixologiyasi / Per. ingliz tilidan. A. Tatlibayeva. - Sankt-Peterburg: Pyotr, - 2000 yil.
3. Levitskiy V. V. Semasiologiya/V. V. Levitskiy - Vinitsa: Yangi kitob, - 2006.
4. Popova Z.D., Sternin I.A. Umumiy tilshunoslik - Moskva: AST: Vostok-behind-A2007.
5. Анорбоева С. А. Формирование переводческой компетентности (на примере: бакалавриат и магистратура) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 337-348.
6. АНОРБОЕВА С. Формирование профессиональной компетентности переводчика //Journal of Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 35-39.



7. ANORBOYEVA, S. (2023). “SHADOWING” METODI ORQALI ISPAN TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH . Journal of Research and Innovation, 1(11), 3–6. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/807>
8. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.
9. АНОРБОЕВА, С., & ШОДИКУЛОВА, Ш. (2023). К ПРОБЛЕМЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(3), 22–26. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/111>
10. АНОРБОЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>
11. Aborboyeva S. ON THE CONCEPT OF TRANSLATION COMPETENCE AS A MULTISPECTIVE THEORETICAL CONCEPT //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 8.
12. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
13. ANORBOYEVA, S. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2(3), 9–12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/1263>